

Adabiyot 2019. Qarshi DTM. 2.08.2019

1. Davlatni boshqarish uchun Mo'l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar kerakligi qaysi asarda aytilgan?
2. G'amning loyiga botgan obraz?
3. Farg'onada tug'ilgan, erta yetim qolgan, jurnalistika bilan shug'ullangan ijodkor kim...?
4. "Inson qanchalik odil bo'lsin, qanchalik tanti bo'lsin, baribir.....baribir o'z yurti, o'z eliga tortar ekan". Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
5. "Dunyoning ishlari" qissasidagi "Sovchilar" hikoyasida nasldan naslga o'tadigan qaysi kasallik haqida yozilgan?
6. "Hiloliya" asari kimga bag'ishlangan?
7. "Oq kema" qissasida bola uchun erk va qudrat ramzi nima bo'lgan?
8. Qaysi asarda "...og'ir- vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi" jummalari o'rin olgan?
9. Sultonxon Rustamxon haqida "Oti Rustam, o'zi nor kalla qo'chqor" deb kimlarga aytadi?
10. Tasavvufda nay nimaning ramzi hisoblanadi?
11. "Zustunga yozilgan. Biri 170, ikkinchisi 160sm" Ushbu ma'lumot qaysi yodgorlikka tegishli?
12. "Chinor" romanida Akbarali o'zining qo'rqqoqligi uchun qanday to'lov to'laydi?
13. "Kuntug'mish" dostonida qaysi qahramon bosiq, vazmin, aql bilan ish ko'radigan bola deya ta'riflangan?
14. G'azal yorga murojat bilan boshlansa-da, biror misrada "yor" so'zi ishlatilmaydi. Ushbu fikr kimning g'azali haqida?
15. "Mabdai nur", "Kimyo" asarlarining muallifini aniqlang.
16. "O'zinniki emas bu umr, To'la menikimas sezib turibman". Ushbu misralar muallifi kim?
17. O'z ismining ma'nosini bilmagani uchun shoh huzuridan haydalgan elchi obrazi qaysi asarda uchraydi?
18. "Bu ziyon baski, chun g'am rudi tuzdum, Sirishkim selidin Ka'bamni buzdum.". Ushbu jumla qaysi asar qahramoniga tegishli?
19. "Yolg'iz bola yovdan yomon". Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
20. "Yoz yomg'iri" asarining janrini toping.
21. Otello tragediyasida Rodrigo kim?
22. "Meni shu adirlklarga ko'ming" Ushbu parcha qaysi adibning hayotiga taalluqli?
23. Qaysi asar qahramonining adolat uchun qilgan harakatlari devorga urilib singan chinni buyumga o'xshatilgan?
24. Ahmad Tanbal qaysi asar qahramoni?
25. "Qora quyosh" "Osmonning oxiri" asarlarining muallifi kim?
26. Jamoliddin ketmon obrazi qaysi asarda uchraydi?
27. Masuma beka obrazi qaysi asarda uchraydi? "Me'mor"
28. Hayvonlarni bosh qahramon darajasiga ko'targan ijodkor kim?
29. "Fidoyi xalqim" she'ri va bundan tashqari "Til", "Maktab" nomli g'azallar yozgan ijodkorni aniqlang
30. Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" asari bilan bir xil janrda yozilmagan asarni belgilang.
A) "Tengdoshlar" (O.Yoqubov) "Muqaddas"
B) "Nur qidirib", "Jamila"
C) "Meros", "Bolalik"
D) "Er boshiga ish tushsa", "Adolat manzili"
31. Quyida berilgan xalq dostonlari orasidan Qoraxonga tegishlisini aniqlang.
A) Akasi ukam baxil bo'lib qolmasin deb odam jo'natganda, xafa bo'lib Qalmoqqa ketib qoladi.
B) O'g'lini qutqarish uchun 3 oylik yo'lni 20 kunda bosib o'tadi
C) Yolg'iz o'g'lining g'amida davlat boshqaruvini qushbegisiga topshirib, o'zi toat-ibodatga bag'ishlaydi.
D) O'g'lining sevgan yori yurtiga borishini istamaydi va yilqichiga ot bermaslikni tayinlab qo'yadi
32. "Sayha" she'rlar to'plami, "Bayonoti sayyohi hindi" nasriy asarlari muallifi kim?
33. Ilk turkiy doston muallifi kim?
34. Qaysi dostonida ota og'lini begona yurtga jonatishni istamay yilqichisiga og'liga ot bermasligini tayinlaydi buqahramon kim?
35. Navoiyning "Yoq" radifli g'azalida jonsiz jismni nimaga oxshatgan?
36. Navoiyning qaysi dostonida ikki ota farzandlarini qutqarish uchun qaroqchiga qarshi kurashadi?
37. Ezopning qaysi masalida ba'zi odamlarning yomonlik qilmaganlarining o'zi yaxshilik degan goya bor?
38. G'.G'ulomning Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan to'plami nomini toping
39. Jomiyning "Xamsa" si nima deb ataladi?
40. O'tgan kunlar" romanida Otabek va Mirzakarim qutidor orasiga nifoq solgan obraz?
41. G'avvos Muhammad obrazi qaysi asarda uchraydi?
42. Buqalamun obrazi qaysi asarda uchraydi?
43. To'g'ayqulbek obrazi qaysi asarda uchraydi?
44. O'zbek adabiyotidagi ilk she'riy romani muallifi kim?
45. Qaysi asarda "Xiyonat", "Opamni topib oldim" kabi boblar uchraydi?
46. "Noz-u, ado-u g'amzasi qasdini qilurlar dam-badam, Vah muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina!". Misralar muallifi kim?
47. Qaysi o'zbek ijodkori yaxshi husnixat sohibi bo'lganligi uchun mirzalik, xattotlik qiladi?
48. O'zbek adabiyotiga hamma uchun tanish odamlar obrazini dadil olib kirgan ijodkor kim?
49. "Hayosizdin aslo vafo istama, Vafosizdin aslo hayo istama." Qaysi asardan olingan?
50. Qaysi asar qahramoni birgina odam tanasi orqali avval Darvesh, keyin Xizr va Ahmad Yassaviy siymolari bilan hamsuhbat bo'ladi?
51. "Sohibqiron" dramasida Amir Temur uchun masjid qurgan va bu uchun quvg'in qilingan obraz kim?
52. "Asrlarni yig'latgan sevgi!". Ushbu misralar qaysi she'rdan olingan?
53. To'rt yetimni holidan xabar olib turadigan, olti oydan beri bir soat ham mijja qoqmagan obraz qaysi asarda uchraydi?
54. Uch, qushcha, uch yuragim bo'lib. Shudir sendan so'nggi tilagim. Tanim qolsin, bunda tan nima. Ona yurtga borsin yuragim. Ushbu misralar muallifi kim?
55. "Baxtsiz kuyov" pyesasi "Yig'indi gaplar" maqolasi mavjud. Ijodkorni toping
56. "Boshimda hushim yo'q, Yetim kabi nolonligim, Biyobon gardiman Majnun kabi bit Layli yodida" kabi misralar orqali holini sharh etgan, maqtada bu bayonlarni unumlashtirib taxallusiga ham izoh berib o'tgan. Furqatning qaysi asari haqida gap ketmoqda?
57. Yorning xoki poyini ko'ziga surmadek surtmoqchi bo'lgan ijodkor kim?
58. "Uloqda" hikoyasida Turgun chavandoz kim haqida "Bultur hayitda manga yarim som hayitlik bergan edi", - deb aytadi?
59. Usmon Nosir qaysi she'rida yorini "Kunday yorug, tunday qora ekan kozlaring", - deya ta'riflaydi?
60. Mirtemirning qaysi she'ridagi narsa nomi faqat she'r sarlavhasidagina uchraydi, she'r ichida biror marta kelmaydi?
61. "Yulduzlar mangu yonadi" asaridagi ko'pkarida otdan yiqilib ko'r bo'lib qolgan obraz qaysi?
62. "Inson qanchalik odil bo'lsin, qanchalik tanti bo'lsin, baribir.....baribir o'z yurti, o'z eliga tortar ekan". Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

63. 1998-yilda shoir va yozuvchilarimiz orasida birinchi bolib «O'zbekiston Qahramoni» faxriy unvoni bilan qaysi ijodkor taqdirlangan?
64. Kech kuz edi, men seni ko'rdim, Derazamdan boqardi birov. U sen eding, o, dehqon yurtim, Turar eding yalangto'sh, yayov. Tashqarida izillar yomg'ir, Kir, bobojon, yayragil biroz. Deding: - Paxtam qoldi-ku axir, Yig'ishtiray kelmasdan ayoz. Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
65. "Mirzo Ulug'bek" daramasida Piri Zindoniyning asl ismi kim?
66. "Meni tuzata olmas hech dori- darmon, Ona tilim" Misralari kimga tegishli?
67. "Firdavs ul Iqbol" asarining muallifi?
68. "Insonga qulluq qiladurman" asarining muallifi kim?
69. "Kuntug'mish"da Xolbeka sandiqqa nimalarni soladi?
70. Pushkinning dostonlarini aniqlang.
71. "Qutadg'u blig" ning Vena nusxasi qayerda, qaysi yozuvda ko'chirilgan?
72. "To'nyuquq" bitiktoshida "Inju o'g'uz" deb tilga olingan joy nomi qayer edi?
73. Mirmuhsinning ilk dostonini aniqlang.
74. "... Alisherbekning uyikim, "Unsiya" derlar... ". "Unsiya"ning ma'nosi nima?
75. Ogahiyning "Dahr uyi bunyodkim..." asarining janrini aniqlang.
76. Qaysi ijodkor o'zini "muhit girdobidagi somon parcha"ga o'xshatgan?
77. Qaysi asarda ismi yo'lda tug'ilganligi uchun qo'yilgan qahramon uchraydi?
78. "Sabog'a xitob" asari muallifi kim?
79. Olti oy uxlamay qizining farzandlarini qaragan ayol obrazi qaysi asarda uchraydi?
80. Noziklik ichra belicha yo'q tori-yu gisi, O'z haddini bilib belidin quyi o'ltirur. Baytda qo'llangan badiiy san'atni aniqlang.
81. Qaysi asar boshlanmasi soch oldirish marosimi bilan boshlanadi?
82. Doxtur Muhammadiyor hikoyasi muallifi kim?
83. "Iskandarnoma" kimniki?
84. Otang qurbon bo'lsin shirin tilingga
Yovga ajdohoyim, senga yol bolsin
Send bolmasang otang holi ne kechar
Sensiz falak menga kafan to'n bichar.
Ushbu misra qaysi dostonidan?

Qashqadaryo viloyati. Qarshi shahri.
DTM 2019 kirish imtihonlari bazasidan to'plandi.
Telegram: @ona_tili